

# TAJRIBA IShI

## FR-2 FOTOREZISTORNI O'RGANISH VA SINASH

### *Ishning maqsadi*

FR-2 fotorezistorli o'tkazgichning ish printsipini va amalda qo'llanishini o'rganish.

### *Ishni bajarish tartibi*

- FR-2 prinsipial sxemadagi elementlar bilan tanishing.
- Sxemadagi funksional elementlarni aniqlansin.
- Stendagi klemmalarning belgilanishi va sxemadagi sifrlar, xamda punktlar chiziqlaridan foydalinib uni yig'ng.
- Sxemani qo'lda va avtomatik usulda boshqarib qo'ring.

# **Avtomatlashtirishning texnik vositalari va raqamli avtomatika fanidan**

**4-LABORATORIYA ISHI**

**FR-2 FOTOREZISTORNI O'RGANISH VA SINASH**

# Ishning maqsadi

FR-2 fotorezistorli o'tkazgichning ish printsipini va amalda qo'llanishini o'rganish.

## Ishni bajarish tartibi

- FR-2 prinsipial sxemadagi elementlar bilan tanishing.
- Sxemadagi funksional elementlarni aniqlansin.
- Stendagi klemmalarning belgilanishi va sxemadagi raqamlar xamda punktlar chiziqlaridan foydalinib uni yig'ng.
- Sxemani qo'lida va avtomatik usulda boshqarib qo'ring.

## Umumiy ma'lumotlar

Avtomatik rostlash tizimlarida turli xildagi miqdorlarni nazorat qilish uchun turli datchiklar (harorat, namlik, yoritilganlik, sath) keng miqiyosda qo'llaniladi. Bunday datchiklarning ko`pgina turlari yarim o'tkazgichli moddalardan yasalib, ularning nochiziqli xususiyatidan, ya`ni turli xil ta`sirlar (mexaniq, issiqlik, yoritilganlik va hokazo) oqibatida qarshilik miqdorlarining o'zgarishidan foydalanilgan.

Bunday nochiziqli elementlarga tyermistor, pozistor, fotorezistor, varistorlar misol bo`lishi mumkin.

Nochiziqli elementlarning ba`zilarida tok oshishi bilan ularning qarshiligi ham oshadi, ba`zilarining qarshiligi kamayadi.

yorug`lik ta`sirida o`zining qarshiligini o`zgartiradi. Yorug`lik nurlari foterezistorning yuzasiga tushsa, uning qarshiligi keskin kamayadi, agar yoritilganlik miqdori pasaysa qarshiligi oshadi. Foterezistorlar oltingugurtli qo`rg`oshindan yasalsa FSA tipidagi, oltingugurtli vismutdan yasalsa FSB tipidagi, oltingugurtli kalsiyidan yasalsa FSK tipidagi deb belgilanadi.

Foterezistorni sxemalarga ulanganda, qutblarning o`rni almashishining ahamiyati yo`q. Uning asosiy kamchiligi inyersionliligi hisoblanadi, ya`ni yorug`lik nurlarining miqdoriga qarab zanjirdagi qarshilik va unga mos tok miqdorining o`zgarishi uchun ma`lum vaqt talab etiladi.


Ushbu bajarilayotgan ishda FR-2 foterezistor relesi yorug`lik lampalarining, muhitning tabiiy yoritilganlik miqdoriga qarab avtomatik usulda ishga tushirish va o`chirish uchun xizmat qiladi.




. Fotoresistorning (datchik) ko`rinishi



## «Nima uchun?» sxemasi «Fotometrik o'zgartkichdan foydalanish masalasi»





1- rasm.Fotoo`zgartkichning o`lchov qismi.  
1 – kabel`, 2 – karkas, 3- yorug`lik manbai, 4- fotorezistor. 5 - mufta

## “Fotometrik o’zgartkichning ishini o’rganish” ga qo’llanilganda “Aqliy xujum” metodi

↳ Yorug`likni avtomatik rostlash tizimining prinsipial elektr sxemasida qanday elementlarlar mavjud?	<ul style="list-style-type: none"><li>↳ FR-fotorezistor;</li><li>↳ VD-diod;</li><li>↳ C-sig’im;</li><li>↳ K, K1-rele;</li><li>↳ VD1, VD2 - tranzistor;</li><li>↳ R1,R2,R3,R4,R5,R6,R7- resistor;</li><li>↳ EL - lampa.</li></ul>
↳ Fotoo`zgartkichning o`lchov qismi nimalardan iborat?	1 – kabel`, 2 – karkas, 3- yorug`lik manbai, 4- fotorezistor, 5 - mufta
↳ Fotometrik o’zgartkichning sxemasini qanday rejimlarda ishlatish mumkin ?	<ul style="list-style-type: none"><li>↳ - qo’l rejimda.</li><li>↳ - avtomatik rejimda</li></ul>

## *Sxemaning ishlash tartibi*

Fotorezistor FR-2 tranzistor VT1 bazasiga hamda R5, R6 rezistorlar bilan ketma – ket ulangan. Fotorezistorning sezgirligini oshirish uchun VT1 va VT2 tranzistorlardan iborat kuchaytirgich qo'llanilgan. Fotorezistor (FSK gyermetik tipidagi) bevosita FR-2 fotorelening korpusida yoki 15 m dan uzoq bo`lmagan masofada o`rnatilishi mumkin, lekin unga faqat muhitning tabiiy yoritiganligi ta`sir etishi shart. Rele yoki K kontaktorining g`altagi VT2 tranzistorining kollektor va emittoriga ulangan va qo`shiluvchi kontakt K orqali K releni ishga tushirishga xizmat qiladi. Diod VD yarim davrli to`g`rilagich sifatida, ya`ni o`zgaruvchan tokni o`zgarmas tokka aylantiruvchi, kondensator S to`g`rilangan tokning pul`sasiyasini silliqlovchi vositalar sifatida xizmat qiladi.


FR-2 fotorezistor sxemasi qo`lda hamda avtomatik ravishda ishlatish uchun mo`ljallangan bo`lib, A almashlab ulagich (pyereklyuchatel`) vositasida amalga. Sxemadagi R6 rezistori obyektning tabiiy yoritilganlik darajasiga qarab sxemani moslash uchun xizmat qiladi. Sxemani qo`lda boshqarish tartibiga (rejimiga) o`tkazish uchun A almashlab ulangichni «QO`L» holatiga o`tkazamiz va K relening g`altagidan FU-SA-A-1-2-K-3-4 zanjiri bo`ylab tok oqib o`tadi. Rele K ishga tushib qo`shiluvchi kontaktlari K1 orqali HL1, HL2, HL3... lampalarni tok manbaiga ulaydi va ular yonadi. Lampalarni o`chirish uchun A almashib ulangich O holatiga keltiriladi va rele K ishdan to`xtaydi hamda uning K1 kontaktlari ajraladi. Sxema avtomatik rejimda ishlashi uchun A almashib ulangichni «AVT» holatiga o`tkazamiz.

Bunda sxemaning ishlashi foterezistor yoki fotodatchik RF qarshiligi miqdorining yoritilganlik darajasiga nisbatan o`zgarishiga bog`liq bo`ladi, ya`ni ob`yektning yoritilganlik darajasi orqali nazorat qilinadi


. Agar ob`yektning yoritlganlik darajasi pasaysa, ya`ni qorong`ilashsa foterezistor ichki qarshiligi oshadi va RF, R5, R6 dan iborat kuchlanish taqsimlagichida potensiallarning taqsimlanishi ro`y byeradi. Chunki tarmoqdan o`tayotgan tokning miqdori kamayadi, tokning miqdori esa Kirxgof qonuniga asosan A nuqtaga nisbatan ko`payadi. Bu holatda VT1 tranzistorining bazasida potensial pasayib, u yopiq rejimga o`tadi va R4, R3 zanjirdan tok o`tmaydi, chunki bu paytda bazadagi potensialning ishorasi musbatga aylanadi. Shu vaqtning o`zida VT2 tranzistorining bazasida ham musbat potensial hosil bo`ladi va u ham yopiq rejimga o`tadi.


Bu holatda 9-10- R1-K2 zanjiridan o`tayotgan tok miqdori oshadi va rele K1 ishga tushib o`zining K1.1 kontaktini ulaydi. Rele K2 ishga tushadi hamda o`zining K2.1 kontaktlarini ulab HL1, HL2, HL3 lampalarini ishga tushiradi.

Agar ob`ektning yoritilganlik darajasi yetarli miqdorda bo`lsa, VT1 tranzistorining bazasiga uning emittyeriga R5 va R6 rezistorlardan iborat kuchlanish taqsimlagichidan manfiy potensial byeriladi. Tranzistor VT1 ochiladi va R4, R3 rezistorlar orqali tok o`tadi. Tranzistor VT2 bazasiga R3 rezistor orqali xuddi shunday potensial byeriladiki, bunda u ham ochiq rejimga o`tib, o`zidan R2 rezistori orqali tok o`tkazadi va K2 relesining g`altagini shuntlaydi. Bu holatda K2 relening g`altagidagi kuchlanish miqdori uning ishga tushishi uchun yetarli bo`lmaydi va ishga tusha olmaydi, bu holda HL1, HL2, HL3 lampalar yonmaydi.



Tajriba stendida fotorezistorning ulanish sxemasi





2-rasm. Yorug`likni avtomatik rostlash tizimining prinsipial elektr sxemasi.

## ***Tekshirish uchun savollar:***

- Fotoelementlar haqida tushuncha bering.
- Fotorezistorlarning tarkibi, ish prinsipi qanday?
- Fotoelektrik o`zgartkichlar qanday xususiyatga ega?
- FR-2 tipidagi fotorezistorning ish prinsipini tushuntiring.
- Yorug`likni avtomatik rostlash tizimining prinsipial elektr sxemasini tushuntiring.

## ***Hisobot tarkibi***

- Ishning nomi, raqami va maqsadi
- Qisqacha nazariy ma`lumotlar
- Eksperimental qurilmaning sxemasi.

Eksperimental o`lchovlarning jadvali, tavsifnomalar grafigi va hisoblashlar natijalari

Ish bo`yicha hulosalar

---



**ETIBORLARIHGIZ  
UCHUN RAXMAT**